

KONFERENSIYALAR.UZ

ANJUMANLAR PLATFORMASI

O'ZBEKISTON – 2030: INNOVATSIYA, FAN VA TA'LIM ISTIQBOLLARI

IV RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY
KONFERENSIYA MATERIALLARI

AVGUST, 2025-YIL





O'ZBEKİSTON — 2030: INNOVATSIYA, FAN VA TA'LIM ISTIQBOLLARI

IV RESPUBLIKA ILMİY-AMALİY
KONFERENSIYASI MATERİALLARI

2025-yil, avgust

TOSHKENT-2025

ISBN 978-9910-09-259-6

O'ZBEKISTON - 2030: INNOVATSIYA, FAN VA TA'LIM ISTIQBOLLARI. IV Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari. – Toshkent: Scienceproblems team, 2025. – 232 bet.

Elektron nashr: <https://konferensiyalar.uz>

Konferensiya tashkilotchisi: "Scienceproblems Team" MChJ

Konferensiya o'tkazilgan sana: 2025-yil, 05-avgust

Mas'ul muharrir:

Isanova Feruza Tulqinovna

Annotatsiya

Mazkur nashrda "O'zbekiston — 2030: innovatsiya, fan va ta'lism istiqbollari" nomli IV Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi doirasida taqdim etilgan ilmiy maqolalar to'plami jamlangan. Unda O'zbekistonning turli oliy ta'lim va ilmiy-tadqiqot muassasalari, tarmoq tashkilotlari, mustaqil tadqiqotchilar tomonidan taqdim etilgan ijtimoiy-gumanitar, iqtisodiyot, huquq, biologiya, tibbiyot va boshqa sohalarga oid maqolalar kiritilgan. Maqolalarda ilm-fanning zamonaviy yo'nalishlari, innovatsion texnologiyalar, ta'lim islohotlari hamda barqaror taraqqiyotga oid masalalar muhokama qilingan. To'plam akademik izlanishlar, amaliy tajribalar va ilmiy xulosalarni birlashtirgan holda, fanlararo integratsiyani chuqurlashtirish va ilmiy hamkorlikni kuchaytirishga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: ilmiy-amaliy konferensiya, innovatsiya, fan va ta'lism, O'zbekiston 2030, barqaror rivojlanish, ilmiy izlanishlar, fanlararo integratsiya, ilmiy hamkorlik, texnologik taraqqiyot, zamonaviy ta'lism.

ISBN 978-9910-09-259-6

Barcha huqlar himoyalangan.

© Scienceproblems team, 2025-yil

© Mualliflar jamoasi, 2025-yil

MUNDARIJA

TEXNIKA FANLARI

Фозилжонов Хожиакбар

ОБЗОР ТЕСТ ПАТТЕРНОВ ДЛЯ ИССЛЕДОВАНИЯ ПАРАМЕТРОВ ПЭМИ ВИДЕОТРАКТОВ
CBT.....7-11

Mamadaliyeva Gulhayo

QANOT UYUMLARI TENG BO'LMAGAN EGAT OCHGICHINI QANOTINING BALANDLIGINI
UNING ISH KO'RSATGICHALARIGA TA'SIRI.....12-16

Iskandarov Orifxon

TIRIKOTAJ MATOLAR SIFATI: ILMIY-TAHLILY YONDASHUV.....17-19

TARIX FANLARI

Bobojonova Zuxra

NIZOMIDDIN SHOMIY VA SHARAFIDDIN ALI YAZDIYLARNING ZAFARNOMA ASARLARIDAGI
QIYOSIY FARQLAR.....20-23

Sattarova Marhabo

O'ZBEKISTONDA MILLATLARARO TOLERANTLIK VA UNING MADANIY-SIYOSIY
JARAYONLARGA TA'SIRI.....24-25

Xasanova Nargiza

AYOL-QIZLARNING ILMIY IZLANISHLARI VA TADQIQOTLARI HAQIDA26-29

Rustamova Nigora

MUSTAQILLIK YILLARIDA SAMARQAND VILOYATIDA TURIZM SOHASINI RIVOJLANTIRISH
ISTIQBOLLARI30-32

Xalilov Baxodir

YOSHLAR BILAN ISHLASHDA MAKTABDAN TASHQARI TA'LIMNING ROLI: "KAMOLOT"
TASHKILOTI FAOLIYATI TAHLILI (Navoiy viloyati misolida)33-37

Норов Шуҳрат

УЧАСТИЯ МОЛОДЁЖНЫХ ОРГАНИЗАЦИЙ В ОБЩЕСТВЕННО-ПОЛИТИЧЕСКОЙ ЖИЗНИ
РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН (на примере Самарканда, Бухары и Навои)38-41

Sattarova Marhabo

O'ZBEKISTONDA MILLATLARARO TOLERANTLIK VA UNING MADANIY-SIYOSIY
JARAYONLARGA TA'SIRI (Surxondaryo viloyati 1991-2022 yillarda)42-43

IQTISODIYOT FANLARI

Qo'chqarov Baxtiyor

KICHIK BIZNES SUBYEKTALARIDA AYLANMA MABLAG'LAR SAMARADORLIGINI BAHOLASH
METODIKASI.....44-47

Abduraimova Nigora

TABAQALASHTIRILGAN SOLIQ STAVKALARINI QO'LLASH
BO'YICHA JAHON TAJRIBASI48-51

Sidiqov Jasurbek

IJTIMOIY INNOVATSIYALARINI TATBIQ ETISHDAGI MUAMMOLAR VA YECHIMLAR.....52-56

Nematova Dilnoza

ASOSIY VOSITALARNING ESKIRISHI HISOBINI TAKOMILLASHTIRISH57-63

Axmedova O'g'ilshod

O'ZBEKISTONDA MIKROMOLIYA TASHKILOTLARIDA ISLOM MOLIYASI
INSTRUMENTLARINING JORIY ETILISHI VA UNING ISTIQBOLLARI64-66

| | |
|--|---------|
| <i>Abduraimova Nigora</i> | |
| TABAQALASHTIRILGAN STAVKALARNI QO'LLASHDAGI MUAMMOLAR VA QARAMA-QARSHILIKLAR | 67-70 |
| <i>Tuychiyev Anvarjon</i> | |
| MAMLAKAT XIZMATLAR KO'RSATISH SOHASINING RIVOJLANISH IMKONIYATLARI | 71-75 |
| <i>Asqarov Abrorjon</i> | |
| TALABALARDA MOLIYAVIY SAVODXONLIKNI RIVOJLANTIRISH DARAJALARI VA UNI PEDAGOGIK TASHXISLASH XUSUSIYATLARI | 76-85 |
| <i>Yusufjonov Ravshanbek</i> | |
| INVESTMENTS IN THE AGRICULTURAL SECTOR..... | 86-88 |
| FALSAFA FANLARI | |
| <i>Gafurova Munojat</i> | |
| O'ZBEKISTON SHAROITIDA GENDER TENGSIZLIGINING IJTIMOIY TABIYATI VA UNING BARTARAF ETILISH YO'LLARI..... | 89-92 |
| <i>Abdullayev Sodiqjon</i> | |
| ZAMONAVIY GLOBAL MUHITDA SALOMATLIK MADANIYATINING SHAKLLANISH OMILLARI | 93-98 |
| FILOLOGIYA FANLARI | |
| <i>Yusufova Farangiz</i> | |
| HALIMA XUDOYBERDIYEVA SHERIYATIDA BADIY-ESTETIK TALQIN..... | 99-102 |
| <i>Xoliyorova To'lg'anoy</i> | |
| O'ZBEK TILI O'QITISH JARAYONIDA KORPUS LINGVISTIKASI VOSITALARIDAN FOYDALANISH IMKONIYATLARI | 103-104 |
| <i>Ro'ziyev Temur</i> | |
| IJODDAGI SHAXS VA ESTETIK POZITSIYA MUTANOSIBLIGI | 105-112 |
| <i>Eshchanova Mavjuda</i> | |
| CLASSICAL CLASSIFICATIONS OF EUPHEMISMS: SEMANTIC, PRAGMATIC AND FUNCTIONAL APPROACHES..... | 113-115 |
| <i>Sobirova Shahzoda, Jumayeva Dilfuz</i> | |
| ALISHER NAVOIY ASARLARINING STILISTIK XUSUSIYATLARI ("Hayrat ul-abror" dostoni misolida) | 116-119 |
| <i>Bahromjonova Shahnoza</i> | |
| "MOMOTARO" YAPON XALQ ERTAGI VA UNING FILM VA ANIMEDAGI TALQINI | 120-122 |
| <i>Maxmudova Marjona</i> | |
| "DOLZARB 90 KUN" TASHABBUSI DOIRASIDA YOSHLAR BILAN ISHLASHNING YANGI BOSQICHI..... | 123-124 |
| <i>Gulmuradova Sobira</i> | |
| TURKIYSHUNOSLIKDA ETNOGRAFIZMLARNING O'RGANILISHIGA DOIR..... | 125-127 |
| <i>Qurbanova Aziza</i> | |
| O'ZBEK TILSHUNOSLIGIDA SOMATIK IBORALARING AHAMIYATI | 128-129 |
| <i>Pulatjonova Muxtasar</i> | |
| ENGLISH LEARNING DIFFICULTIES OF UZBEK LEARNERS: A QUESTIONNAIRE-BASED STUDY..... | 130-136 |

Qosimova Malika

LAKUNALARNING TARJIMASHUNOSLIKDA O'RGANILISHI VA ULARNI BARTARAF ETISH
METODLARI 137-140

Ayimbetova Damekhan

ADABIYOTSHUNOSLIKDA TED XYUZ IJODINING O'RGANILISHI: ANIMALISTIK SHE'RIYATI VA
OBRAZLAR TIZIMI 141-145

Yo'lidasheva Mahliyo

"MARTIN IDEN" VA "OQ SO'YLOQ" ASARLARI TARJIMALARINING LINGVOPRAGMATIK
XUSUSIYATLARI 146-149

YURIDIK FANLARI

G'ofurov Ramzbek

DASTLABKI TERGOVDA JAMOATCHILIKNING ISHTIROKI 150-154

Turdibaeva Mukhaddas

JUDICIAL REFORMS OF UZBEKISTAN-A NEW ERA, NEW APPROACHES 155-160

Gafurova Shoira

ELEKTRON DALILLARNI TO'PLASH VA TAQDIM
ETISHNING AMALIY MUAMMOLARI 161-165

Komilov Avazbek

PROKURORNING MA'MURIY JAVOBGARLIK TO'G'RISIDA ISH QO'ZG'ATISH HAQIDAGI QARORI
VA UNING SHAKLI HAMDA MAZMUNIGA QO'YILGAN TALABLAR 166-169

Babajanov Farrux

IQTISODIY PROTSESSUAL HUQUQI PRINSIPLARINI SUD XARAJATLARI INSTITUTIDA AKS
ETTIRISH 170-175

PEDAGOGIKA FANLARI

Nuriyllaeva Ugulxon

ПРОЦЕССЫ ОБРАТНОЙ СВЯЗИ (feedback) И МОНИТОРИНГА: ЭФФЕКТИВНОЕ
ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ЦИФРОВЫХ ДАННЫХ ВО ВЗАИМОДЕЙСТВИИ МЕЖДУ СТУДЕНТОМ И
ПРЕПОДАВАТЕЛЕМ 176-181

Tursinova Zoxida

TA'LIM SIFATINI OSHIRISHDA O'QITUVCHILARNING PEDAGOGIK MAHORATINI
BAHOLASH MEXANIZMLARINING SAMARADORLIGINI
OSHIRISHNING O'ZIGA XOS HUSUSIYATLARI 182-191

Babayeva Shahnoza

BO'LAJAK INGLIZ TILI O'QITUVCHILARINING KOMMUNIKATIV KOMPETENTLIGINI
RIVOJLANTIRISHNING METODIK MUAMMOLARI VA DOLZARBLIGI 192-194

Rasulova Baroxon

KOMPETENSIYAVIY YONDASHUVGA ASOSLANGAN TA'LIMDA FORMATIV VA SUMMATIV
INNOVATSION BAHOLASH USULLARI 195-199

Zokirjonov Akramjon

O'ZBEKISTON — 2030: INNOVATSIYA, FAN VA TA'LIM ISTIQBOLLARI 200-202

Baratova Yulduz

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNI TARBIYALASHDA SHAXSGA YO'NALТИРИЛГАН
YONDASHUVNING AHAMIYATI 203-206

Sattoriy Shohruh

RAQAMLI TRANSFORMATSIYA JARAYONIDA
TA'LIM SIFATINI TA'MINLASH MEXANIZMLARI 207-210

TIBBIYOT FANLARI

Urunbayeva Dilorom, Xudaybergenova Shaxnoza
AUTOIMMUN TIREOIDIT VA SELEN 211-213

Mamadaliiev Xasanxon

ПАТОМОРФОЛОГИЧЕСКИЕ ПРОЯВЛЕНИЯ АНТИФОСФОЛИПИДНОГО СИНДРОМА (АФС)
И УРОВЕНЬ АНТИФОСФОЛИПИДНЫХ АНТИТЕЛ У ЖЕНЩИН-РОДИЛЬНИЦ: КЛИНИКО-
МОРФОЛОГИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ 214-218

Maxmudbekov Boburmirzo

BOLALARDA PASTKI JAG' O'TKIR ODONTOGEN OSTEOMIELITINI KOMPLEKS DAVOLASHDA
OPERATSIYADAN KEYINGI YARALARNI MAXALLIY DAVOLASH 219-221

PSIXOLOGIYA FANLARI

Usmanova Lilia
ЭТАПЫ ЖИЗНЕННОГО ЦИКЛА СЕМЬИ: ПОДХОДЫ И ПЕРСПЕКТИВЫ В НАУЧНОЙ
ТРАДИЦИИ 222-225

SIYOSIY FANLAR

Sa'diyev Bahodir
ENERGETIKANING RIVOJLANISH OMILLARI VA ASOSIY GLOBAL AKTYORLARI 226-231

PROKURORNING MA'MURIY JAVOBGARLIK TO'G'RISIDA ISh QO'ZG'ATISH HAQIDAGI QARORI VA UNING ShAKLI HAMDA MAZMUNIGA QO'YILGAN TALABLAR

Komilov Avazbek Bokijonovich,

O'zbekiston Respublikasi Huquqni muhofaza qilish
akademiyasi kafedra boshlig'i,
yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
E-mail: komilov02011985@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur tezisda qonunlar ijrosi ustidan nazorat yo'nalishida qo'llaniladigan tartibida keltiriladigan ma'muriy javobgarlik to'g'risida ish qo'zg'atish haqidagi prokuror qarori va uning shakli hamda mazmuniga qo'yilgan asosiy talablar bayon etilgan. Muallifning fikriga ko'ra, ma'muriy javobgarlik to'g'risida ish qo'zg'atish haqidagi prokuror qarorida quyidagi asosiy xususiyatlар mayjud: qaror ham mansabdor shaxslarga, ham fuqarolarga nisbatan qabul qilinishi mumkin; qaror prokuratura organlari mansabdor shaxslarining yakkaboshchilik asosidagi qarori sanaladi; qaror individual ta'sir ko'rsatish hujjati sanaladi, chunki u aniq sub'ektga qaratilgan bo'ladi; qaror doimo yozma shaklda ifodalanadi hamda qaror uni ko'rib chiqishga mas'ul bo'lgan organ yoki mansabdor shaxs tomonidan ko'rib chiqilishi va u bo'yicha qaror qabul qilinishi majburiy sanaladi. Mazkur nazorat hujjati muayyan mansabdor shaxsning harakatsizligi sababidan pretsedent hosil qilish maqsadida qo'llanilishi maqsadga muvofiq bo'ladi. Shuningdek, tezisda ma'muriy javobgarlik to'g'risida ish qo'zg'atish haqida qaror chiqarishdan ko'zlangan maqsad, uning asoslari, ma'muriy javobgarlik to'g'risida ish qo'zg'atish haqida qaror chiqarishdan oldin aniqlik kiritish zarur bo'lgan masalalar, qarorni tayyorlashda amal qilinishi lozim bo'lgan uslubiy ko'rsatmalar, uning shakl va mazmuniga qo'yilgan talablar ham qayd etilgan.

Kalit so'zlar: qonunlar ijrosi ustidan prokuror nazorati, prokuror nazorati hujjatlari, prokuror qarori, ma'muriy huquqbuzarlik, ma'muriy javobgarlik, ma'muriy huquqbuzarlik sodir etilganligi to'g'risidagi bayonnaoma.

PROSECUTOR'S DECISION ON ADMINISTRATIVE LIABILITY AND REQUIREMENTS FOR ITS FORM AND CONTENT

Komilov Avazbek Bokijonovich,

Head of the Department of Law Enforcement Academy
of the Republic of Uzbekistan,
PhD in Law, Associate Professor

Annotation. The thesis outlines the procedure for initiating administrative liability proceedings for monitoring the implementation of laws. According to the author, the prosecutor's decision to initiate administrative liability proceedings has the following main features: the decision can be made against both officials and citizens; the decision is the individual decision of the prosecutor's office officials; the decision is a document of individual impact, as it is directed at a specific subject; the decision is always expressed in writing and its consideration and decision-making by the responsible body or official is mandatory. This supervisory document should be used to set a precedent due to the inaction of a particular official. The thesis also notes the purpose of the decision to initiate administrative liability proceedings, its grounds, the issues that need to be clarified before the decision is made, the methodological guidelines for its preparation, and the requirements for its form and content.

Key words: prosecutorial supervision over the execution of laws, acts of prosecutorial supervision, prosecutor's decision, administrative offense, administrative liability, a protocol on the commission of an administrative offense.

DOI: <https://doi.org/10.47390/259-6/uzb-IV/No-38>

"Prokuratura to'g'risida"gi Qonunning 39-moddasiga asosan, prokuror mansabdor shaxs yoki fuqaro tomonidan sodir etilgan qonun buzilishining xususiyatiga qarab jinoyat ishi,

ma'muriy yoki intizomiy javobgarlik to'g'risida ish qo'zg'atish haqida qaror chiqaradi. Prokuror qonunda nazarda tutilgan boshqa hollarda ham qaror chiqaradi.

Qaror muayyan mansabdar shaxsning harakatsizligi sababidan pretsedent hosil qilish maqsadida qo'llanilishi maqsadga muvofiq bo'ladi. Basharti, ma'muriy javobgarlikka tortish zarurati bilan birga, prokuror bartaraf etilishi zarur bo'lgan boshqa qonunbuzarliklarni ham aniqlagan bo'lsa, u holda, taqdimnomalar kiritib, unda harakatsizlikda aybdor bo'lgan shaxslarni javobgarlikka tortish masalasini qo'yish to'g'riroq bo'ladi[1; 157-b.].

Prokuror harakatlarida ma'muriy huquqbazarlik alomatlari aniqlangan fuqarolar va mansabdar shaxslarga nisbatan ma'muriy javobgarlik to'g'risida ish qo'zg'atish haqida qaror chiqaradi. Ma'muriy javobgarlik to'g'risida ish qo'zg'atish haqidagi qaror ma'muriy huquqbazarlik sodir etgan shaxsni qonunda belgilangan ma'muriy javobgarlikka tortishga qaratilgan prokuror nazorati hujjati hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksining 275-moddasiga asosan, prokuror ma'muriy huquqbazarlik to'g'risidagi ishlarni yuritish chog'ida qonunlarning ijrosi ustidan nazoratni amalga oshirar ekan ma'muriy huquqbazarlik to'g'risida ish qo'zg'atishga haqlidir[2].

Qaror qabul qilishga ma'muriy huquqbazarlik sodir etilganligi haqidagi ma'lumotlarni o'z ichiga oluvchi HMHQO, boshqa davlat organlari, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari, jamoat birlashmalaridan kelib tushgan materiallar va ma'lumotlar, jismoniy va yuridik shaxslarning ariza va shikoyatlari hamda OAVlarining xabarlari sabab bo'lib xizmat qiladi [3; 1354-1355 b.].

Bizningcha, prokuror ma'muriy javobgarlik to'g'risida ish qo'zg'atish haqida qaror chiqarishdan oldin quyidagi masalalarga aniqlik kiritishi lozim:

birinchidan, shaxsning harakati yoki harakatsizligida ma'muriy huquqbazarlik alomatlari mavjudligi;

ikkinchidan, huquqbazar tomonidan qaysi qonun yoki normativ-huquqiy hujjat talablari buzilganligi va bunday huquqbazarlik uchun qonunda ma'muriy javobgarlik belgilangan/belgilanmaganligi;

uchinchidan, ma'muriy huquqbazarlik sodir etgan shaxs ma'muriy javobgarlik sub'ekti hisoblanish/hisoblanmasligi;

to'rtinchidan, ma'muriy jazo qo'llanish muddatlari o'tib ketmaganligi;

beshinchidan, ma'muriy huquqbazarlik MJtKning qaysi moddasi bilan malakalanishi;

oltinchidan, ma'muriy javobgarlikka tortiladigan shaxslar doirasi to'liq va to'g'ri aniqlanganligi;

ettinchidan, ma'muriy huquqbazarlik sodir etgan shaxsning aybi isbotlanganligi;

sakkizinchidan, ma'muriy huquqbazarlik to'g'risidagi ishlarni yuritishni istisno etuvchi holatlar (*MJtKning 271-moddasi*) mavjud/mavjud emasligi;

to'qqizinchidan, ma'muriy huquqbazarlik to'g'risidagi ish qaysi vakolatli organ ish yurituviga taalluqliligi.

Shuni yodda tutish kerakki, Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi Kodeksning 280-moddasiga ko'ra, buzilishi ma'muriy javobgarlikni keltirib chiqaradigan qoidalarga riosa etilishini tekshirish va (yoki) nazorat qilish qonunchilik bilan zimmasiga yuklatilgan tegishli organning vakolatli mansabdar shaxsi ma'muriy huquqbazarlik to'g'risidagi bayonnomaga tuzadi. Shu sababli, prokuror ma'muriy javobgarlik to'g'risida ish qo'zg'atish haqidagi qaror qabul qilish jarayonida Kodeksning 281-moddasi talablariga riosa qilgan holda, ma'muriy huquqbazarlik sodir etilganligi to'g'risidagi bayonnomaga tuzishi lozim.

Bayonnomani tuzish vaqtida huquqbuzarga ushbu Kodeksning 294-moddasida nazarda tutilgan uning huquq va burchlari tushuntiriladi va bu xususda bayonnomaga yozib qo'yiladi.

Ma'muriy javobgarlik to'g'risida ish qo'zg'atish haqidagi qarorga:

- prokuror tekshiruvida to'plangan hujjatlar, ma'muriy javobgarlikka tortilayotgan shaxsning shaxsini tasdiqlovchi hujjatning ko'chirma nusxasi;
- ma'muriy javobgarlikka tortilayotgan shaxsning ilgari ma'muriy javobgarlikka tortilgan / tortilmaganligi to'g'risida ma'lumotnoma;
- ma'muriy javobgarlikka tortilayotgan shaxsning tushuntirishi (agar mavjud bo'lsa);
- jabrlanuvchining, guvohlarning ko'rsatuvlari, ekspertning xulosasi va ma'muriy huquqbazarlik sodir etilganligi faktini tasdiqlovchi boshqa hujjatlar ilova qilinadi.

Bundan tashqari, bizningcha, ma'muriy javobgarlik to'g'risida ish qo'zg'atish haqidagi qaror shakl va mazmuniga ko'ra ma'lum bir talablarga javob berishi zarur. Xususan, ma'muriy javobgarlik to'g'risida ish qo'zg'atish haqidagi qarorda:

- ushbu hujjat chiqarilgan sana va joy;
- qaror chiqargan shaxsning lavozimi, darajali unvoni, familiyasi, ismi, otasining ismi;
- huquqbazarlik sodir etgan shaxsning egallab turgan lavozimiga oid ma'lumotlar;
- ma'muriy huquqbazarlik sodir etilgan joy, vaqt va bu huquqbazarlikning mohiyati, uning natijasida yetkazilgan zarar (ziyon), ana shunday huquqbazarlik uchun javobgarlikni nazarda tutuvchi normativ hujjat va Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksning moddasi;
- mazkur huquqbazarlikni ko'rib chiqish vakolatiga ega bo'lgan organ yoki mansabdor shaxs haqida ma'lumotlar aks ettirilishi lozim[4; 7-b.].

Amaldagi Qonunga ko'ra, ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi ish qo'zg'atish haqidagi prokurorning qarori kelib tushgan kundan boshlab o'n besh kun ichida organ yoki mansabdor shaxs tomonidan ko'rib chiqilishi shart. Ayni vaqtda, Kodeksning 305-moddasi 2-qismida nazarda utilgan ma'muriy huquqbazarliklar to'g'risidagi ishlarni ko'rib chiqish uchun alohida qisqa muddatlar belgilangan. Bunday huquqbazarliklar bo'yicha qabul qilingan ma'muriy javobgarlik to'g'risida ish qo'zg'atish haqidagi qarorni ko'rib chiqish bo'yicha ushbu kodeksning 305-moddasi 2-qismida belgilangan muddat belgilanishi lozim[5; 7-b.].

Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi ish qo'zg'atish haqidagi qarorni ko'rib chiqish natijalari haqida uch kunlik muddatda prokurorga yozma ravishda ma'lum qilinadi. Prokuror o'z qarorining ko'rib chiqilish jarayonida ishtirok etishi, muhokamada aybdor shaxs yoki shaxslarni jazolash masalasida o'z fikri va nuqtai nazarini bildirishi mumkin[6; 151-b].

Ma'muriy javobgarlik to'g'risida ish qo'zg'atish haqidagi prokuror qarori protest va taqdimnomasi kabi bir xil yuridik kuchga ega bo'lib, ma'muriy huquqbazarlik to'g'risidagi ishni ko'rib chiqishga mas'ul bo'lgan sud, vakolatli organ yoki mansabdor shaxs prokuror qarorini ko'rib chiqib, u bo'yicha qaror qabul qilishi majburiy hisoblanadi[7; 119-b].

Prokuror har qanday holatda o'zi tomonidan qabul qilingan qarorga asosan aybdor shaxs ma'muriy javobgarlikka tortilgan/tortilmaganligini nazorat qilib borishi kerak [8; 141-b]. Basharti, prokurorning ma'muriy javobgarlik to'g'risida ish qo'zg'atish haqida qarori asossiz ravishda rad etilgan taqdirda, prokuror o'z qarorini ko'rib chiqish uchun yuqori turuvchi organ yoki mansabdor shaxsga (kerak bo'lsa, yuqori turuvchi prokuror orqali) yuborishi lozim bo'ladi[9; 255-b].

Adabiyotlar/Литература/References:

1. Решетникова Т.А. Правовой статус, функции и полномочия прокуратуры в странах СНГ (сравнительно-правовое исследование): Дисс. ... канд. юрид. наук. – М.: Научно-исследовательский институт проблем укрепления законности и правопорядка при Генеральной прокуратуре Российской Федерации, 2005. – С. 157.
2. O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksi // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 22.11.2024 y., 03/24/1004/0948-soni.

3. Гальченко А.И. Функции прокуратуры Российской Федерации: спорные вопросы // «LEX RUSSICA», №11 (Том XCVI) / 2014. – С. 1354-1355.
4. O'zbekiston Respublikasi Bosh prokururatsi hay'atining 27.06.2011 yildagi 6-sod majlisi qarori bilan tasdiqlangan "Prokuror nazorati hujjatlarini tayyorlash va qonun buzilishini bartaraf etishda uning samaradorligini oshirish bo'yicha" Uslubiy qo'llanma / O'zbekiston Respublikasi Bosh prokururatsi. – T.: 2011. – B. 7.
5. O'zbekiston Respublikasi Bosh prokururatsi hay'atining 27.06.2011 yildagi 6-sod majlisi qarori bilan tasdiqlangan "Prokuror nazorati hujjatlarini tayyorlash va qonun buzilishini bartaraf etishda uning samaradorligini oshirish bo'yicha" Uslubiy qo'llanma / O'zbekiston Respublikasi Bosh prokururatsi. – T.: 2011. – B. 7.
6. Дарбинян А.А. Прокурорский надзор за законностью правовых актов, издаваемых Министерством природных ресурсов и экологии Российской Федерации и подведомственными ему федеральными органами: Дисс. ... канд. юрид. наук. – М.: Автономная некоммерческая организация высшего и профессионального образования "Московский гуманитарный университет", 2013. – С. 151.
7. Корешникова Н.Р. Основные правовые средства прокуратуры Российской Федерации как инструмент обеспечения исполнения законов: Дисс. ... канд. юрид. наук. – Екатеринбург: Уральская государственная юридическая академия, 2010. – С. 119.
8. Устименко И.В. Прокурорский надзор за соблюдением социальных прав и свобод человека и гражданина в Российской Федерации: Дисс. ... канд. юрид. наук. – М.: Институт повышения квалификации руководящих кадров Академии Генеральной прокуратуры Российской Федерации, 2009. – С. 141.
9. B.X.Po'latov. Prokuror nazorati: darslik. – Toshkent: «Huquq va burch», 2008. – B. 255.

O'ZBEKISTON — 2030: INNOVATSIYA, FAN VA TA'LIM ISTIQBOLLARI

IV RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY KONFERENSIYASI MATERIALLARI

2025-yil, 05-avgust

Mas'ul muharrir:

F.T.Isanova

Texnik muharrir:

N.Bahodirova

Diszayner:

I.Abdihakimov

O'ZBEKISTON — 2030: INNOVATSIYA, FAN VA TA'LIM ISTIQBOLLARI. IV Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari. – Toshkent: Scienceproblems team, 2025. – 232 bet.

Elektron nashr: <https://konferensiyalar.uz>

Konferensiya tashkilotchisi: Scienceproblems Team

Konferensiya o'tkazilgan sana: 2025-yil, 05-avgust

ISBN 978-9910-09-259-6

Barcha huqular himoyalangan.

© Scienceproblems team, 2025-yil.

© Mualliflar jamoasi, 2025-yil.